

**MOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBINING
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich,

Namangan muhandislik-qurilish instituti

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

xulugbek1984@gmail.com ORCID: 0000-0002-3589-373X

Nabiyeva Muhabbat Djabirxanovna

Namangan muhandislik-qurilish instituti o‘qituvchisi.

Milliy hisob tizimimizda moliyaviy aktivlar har tomonlama va chuqur o‘rganilmagan ob‘yekt hisoblanadi. Bu holat masalaning uslubiy jihatlariga ham to‘la ma’noda tegishlidir. Taqdiqot davomida moliyaviy aktivlar hisobi va tahlil qilishning amaldagi uslublarini bilish va ularni takomillashtirish maqsadida uslublarni yuzaga keltiradigan hamda faoliyatini ta’minlaydigan eng muhim asoslarni imkon qadar ko‘rib chiqdik. Bizningcha, uslub hisob va tahlil ishlarini maqsadga muvofiq bajarilishining usullari va qoidalari majmuidir. Hisob va tahlilda umumiy va xususiy uslublar farqlanadi. Moliyaviy hisob va hisobotni konseptual asoslari umumiy va xususiy uslublarga asos bo‘ladigan muhim fundamental tuzilmadir. Demak, mazkur fundamental tuzilma qanchalik asosli ishlab chiqilsa, undan kelib chiqadigan uslublar shunchalik ishonchli va maqbul bo‘ladi.

Moliyaviy hisob va hisobotni konseptual asoslari milliy¹, xalqaro² hamda har bir mamlakatning o‘ziga tegishli (Misol uchun GAAP)³ ishlab chiqilgan ko‘rinishlari mavjud. Ilmiy tadqiqot ishimizni maqsad vazifalaridan kelib chiqqan holad moliyaviy hisob va hisobotni koseptual aososiga o‘zimizning quyidagi

¹ БҲМС “Молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос”

² Молиявий ҳисоботнинг концептуал асоси. Концептуал асос Бухгалтерия ҳисобининг Халқаро Стандартлари бўйича Кенгаш томонидан 2010 йил сентябрда чоп этилган.

³ Conceptual Framework for financial accounting and Reporting: elements of Financial Statements and Their Measurement, FASB Discussion Memorandum (Stamford, Conn.: FASB 1976), page 1 of the “Scope and Implications of the Conceptual Framework Project” section.

ta'rifimizni berishni maqquul deb topdik. Konseptual asos - moliyaviy hisob va hisobotning o'zaro bog'liq maqsadlari hamda asoslarini alohida tizimli tuzilmasi bo'lib, u moliyaviy hisob va hisobotlarni tabiati, funksiyasi va cheklanganlik jihatlarini ko'rsatib beradi, izchil tarzda va muvofiq standartlar ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Konseptual asos moliyaviy hisobot axborotlarni sifat tavsiflarining prinsiplarini belgilab beruvchi tayanch tuzilma hisoblanadi. Agar, tayanch qanchalik ishonchli bo'lsa, unga asoslanadigan uslublar shunchalik mukammal bo'ladi. Milliy hisob tizimimizda bu boradagi mavjud holatga baho berish uchun milliy, xalqaro va rivojlangan davlatdagi konseptual asosning muhim eyementi bo'lgan moliyaviy axborotlarning sifat xususiyatlari bo'yicha prinsiplarni o'zaro solishtirib chiqamiz.

Jadval

Moliyaviy hisobot axborotlarining sifat xususiyatlari bo'yicha prinsiplar⁴

Moliyaviy hisobot axborotlarining sifat xususiyatlari bo'yicha prinsiplar		
BHMS⁵	BHXS yoki MHXS⁶	GAAP⁷ (AQSH)
Hisoblash. Ikki yoqlama yozuv usulida xisob kitobni yuritish. Uzluksizlik. Xo'jalik operatsiyalarini, aktivlar va passivlarni pul bilan baholash.	Fundamental sifat xususiyatlari:	1. Asosiy sifatlar:
	O'rinlilik.	A) O'rinlilik:
	Muhimlik.	- oldindan ko'ra olish qiymati;
	Ishonchli taqdim etish.	- o'tgan davrni baholash qiymati;
		- o'z vaqtidalilik.

⁴ Муаллиф ишланмаси.

⁵ БХМС "Молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос"

⁶ Молиявий ҳисоботнинг концептуал асоси. Концептуал асос Бухгалтерия ҳисобининг Халқаро Стандартлари бўйича Кенгаш томонидан 2010 йил сентябрда чоп этилган.

⁷ Donald E. Kieso, Jtry J. Weygandt, Terry D. Warfield. INTERMEDIATE ACCOUNTING. John Wiley & Sons, USA. 2004. 46 p.

Ishonchlilik. Ehtiyotkorlik. Mazmunining shakldan ustunligi.	Axborot foydaliligini oshiradigan sifat xususiyatlari:	B) Ishonchlilik:
Ko‘rsatkichlarning qiyosiyliigi.	Qiyoslanuvchanlik.	- tekshirish imkoniyati mavjudligi;
Moliyaviy hisobotdagi betaraflik.	Tekshiruvchanlik.	- haqqoniy aks ettirish;
Hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi.	O‘z vaqtida taqdim etish.	- xolislik;
Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baxosi.	Tushunarlilik.	2. Yordamchi sifatlar:
Tushunarlilik. Ahamiyatlilik. Jiddiylik. Haqqoniy va xolis taqdim. Tugallanganlik. Izchillik. O‘z vaqtida taqdim etish.	Foydali moliyaviy hisobotning sarf-xarajatlar nuqtai nazaridan cheklovi.	A) Taqqoslanuvchanlik. B) Uzlüksizlik.

Jadvalning birinchi ustunida BHMS (Buxgalteriya hisobining milliy standartlari) da moliyaviy hisob va hisobotdagi axborotlarning sifat xususiyatlari alohida, aniq yoki tushunarli tarzda ifodalab berilmagan. U umumiy holda ko‘rib chiqilgan. Albatta bu holat hisob ob‘yektlari uchun uslublarni ishlab chiqishda o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Chunki, aynan nima asosda axborot sifati belgilanadi degan savolga aniq javob yo‘q. Bu borada BHXS (Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari) hamda GAAP (Generally Accepted Accounting Principles)

ning o‘zaro o‘xshashligi bor. Bu yerda nimaga asoslansa axborot sifatli bo‘ladi va har bir prinsipni tavsifi aniq belgilab berilgan. Bizning fikrimizcha GAAP ning sifat bo‘yicha prinsiplari aniqligi, tushunariligi hamda amaliy ahamiyatiga ko‘ra maqbulligi, uning milliy va BHXS ning bu boradagi asoslaridan ustun ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Hisobda axborotlarni shakllantirish va taqdim etishdagi uslublarni qo‘llashda GAAP ning sifat bo‘yicha prinsiplariga tayanish onson va ishonchli bo‘ladi. Natijada esa, sifatli axborotlar – hisob ob‘yektlari harakati bilan bog‘liq boshqaruv qarorlarni amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi va uning tavakkalchilik ehtimolini keskin kamaytiradi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki buxgalteriya axborotlarining sifati uning **o‘rinliligi, ishonchliligi, taqqoslanuvchanligi** hamda **uzluksizligi** bilan belgilanadi. Hisob tizimida axborotni o‘rinliligi – uning **oldindan ko‘ra olish qiymati, o‘tgan davrni baholash qiymati** va **o‘z vaqtida bo‘lishligi** kabi tasniflardan tashkil topadi. Foydalanuvchilar kelgusidagi rejalarni, prognozlarini tuzish uchun qarorlar qabul qilishda buxgalteriya axborotlarini manba bo‘lishligi ularning **oldindan ko‘ra olish qiymatini** ifodalaydi. O‘tgan davrda belgilangan prognozlar, rejalarni to‘g‘riligini tasdiqlash yoki ularni davrga mos holda to‘g‘rilash imkonini berish axborotlarning **o‘tgan davrni baholash qiymatiga** ega ekanligini ko‘rsatadi. Axborotlarning **o‘z vaqtida shakllantirish** va ulardan joriy boshqaruvda tezkor foydalanish **o‘rinlilik** tushunchasini muhim tarkibiy qismidir. Bu bilan iqtisodiy voqelikka o‘z vaqtida va o‘rnida ta’sir ko‘rsatish imkonini yaratiladi. Axborotlarning **ishonchliligini** belgilovchi sifat jihatlari esa – ularning **tekshirish imkoniyati mavjudligi, haqqoniy aks ettirish** hamda **xolislik** tushunchalaridan tashkil topadi.

Hisob hujjatlaridagi ko‘rsatkichlar – hisob usuli, tamoyillari, o‘lchov birliklari, me‘yoriy talablar, hisob-kitoblari bo‘yicha yagona uyg‘unlik asosida shakllantirilishi shart. Mazkur fikr shu mazmunda aytilmoqdaki, turli maqsadlarda audit tekshiruvini o‘tkazilganda ham har bir ko‘rsatkichni tekshirish imkoniyati mavjud bulishi zarur. Tekshirish natijasi esa, u turli auditorlar tomonidan alohida-alohida tekshirilganda ham **bir xil mazmundagi xulosani**

berishi lozim. Ya'ni, ko'rsatkich hisob talablari asosida to'g'ri shakllantirilganli tasdiqlanishi kerak.

Axborotlarni **haqqoniy aks ettirish** esa, har bir ko'rsatkich qiymat yoki miqdor tomonidan haqiqiy asosiga ega bo'lishi shart. Ya'ni, aktivlarning hisob hujjatlaridagi bahosi naqadar ularning real qiymatini ifodalab bera oladi. Bu esa, hozirgi inqiroz davrdagi kabi dastlabki chiqarilgan aksiyalar qiymati va ularning sonini korxonalar aktivlari qiymatidan og'ishishi kabi muammolarni oldini oladi.

Xolislik tushunchasi e'lon qilingan hisob axborotlarini naqadar ob'yektivligini ifodalab beradi. Hech bir ko'rsatkich yoki umuman buxgalteriya hisobi axborotlari ular bilan qiziquvchilar o'rtasida biron-bir manfaat ehtiyojini ustun ko'rib tayyorlanishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Bu holat axborotlarni soxtalashtirishni keltirib chiqaradi.

Buxgalteriya axborotlarini **taqqoslanuvchanligini** ta'minlash esa, bugungi kunda o'ta dolzarb ahamiyatga ega. Chunki, har qanday ko'rsatkichlarni biznes rejaga nisbatan taqqoslash, yillar davomida trendli tahlil qilish, raqabotchi korxonalar axborotlari bilan taqqoslab o'rganish iqtisodiy holatni va uning yo'nalishini aniq ko'rsatib beradi. Bu esa, boshqaruv qarorlarini naqadar ilmiy asosga ega bo'lishida o'z o'rniga ega. Demak, hisob tizimida ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha umum tasnifga ega usullardan maqsadga muvofiq foydalanish kerak.

Korxonalar hisob tizimida bir necha yillar davomida axborotlarni shakllantirilishida **uzluksiz** yondashuv doimo yoki imkon qadar saqlanib turilishi zarur. Chunki, uzluksiz ravishda bir hil hisob usullaridan foydalanish, bir necha yillik ko'rsatkichlarni asosli taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Hisob usullarini tez o'zgartirish esa har xil usulda hisoblangan ko'rsatkichlarni yuzaga chiqaradi, ularni o'zaro taqqoslash asoslangan natijani keltirib chiqarmaydi.

Xulosa qilib aytamizki milliy iqtisodiyotda moliyaviy hisob va hisobotda aks ettiriladigan axborotlarni uslubiy asoslarini xalqaro darajada takomillashtirish yoki ularga muvofiqlashtirish uchun milliy hisob tizimidagi me'yoriy hujjatlarni, aynan bu boradagi BHMS larni MHXS talablari hamda GAAP tajribalardan asosida qaytadan ko'rib chiqishimiz kerak ekan. Fikrimizcha, fundamental

tuzilmani qanchalik asosli tarkib toptirilishi, undan kelib chiqadigan usul va uslublarni shunchalik ishonchli va maqbul bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2020 yil 24 fevral, №PQ-4611: “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”
2. BHMS “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”
3. Moliyaviy hisobotning konseptual asosi. Konseptual asos Buxgalteriya hisobining Xalkaro Standartlari bo‘yicha Kengash tomonidan 2010 yil sentyabrda chop etilgan.
4. Donald E. Kieso, Jtrry J. Weygandt, Terry D. Warfield. INTERMEDIATE ACCOUNTING. John Wiley & Sons, USA. 2004. 46 r.
5. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Ugli, B. O., Karimbaevna, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(2), 431-442.
6. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
7. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.
8. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
9. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.

10. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
11. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
12. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(11), 38-47.
13. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
14. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1 (68)), 102-105.
15. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent—2023*.
16. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.
17. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.
18. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.

19. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQRARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO‘NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.
20. Khakimov, J. B., & Kholmirezayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
21. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
22. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
23. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.
24. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1 (22)), 299-302.
25. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
26. Khakimov, B., & Kholmirezayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.
27. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, 100.

28. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt debt analysis. *Мировая наука*, (1 (34)), 100-105.
29. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.
30. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления*, (5), 182-184.
31. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. *American Journal of Economics and Business Management*, 4(3), 1-8.
32. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In *Conference Zone* (pp. 129-132).
33. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 11, 34-39.
34. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум*, (2 (45)), 34-36.
35. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2107-2114.
36. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 3695-3702.
37. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 203-209.

38. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.
39. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *Questions of Economics and Management*, 5(7), 6.
40. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQLISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
41. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
42. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
43. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1 (68)), 48-52.
44. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Интернаука*, (21-5), 20-22.
45. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Интернаука*, (21-5), 9-11.
46. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. *TRANS Asian Research Journals*, 8(4).
47. Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *Интернаука*, (21-5), 17-19.